

## BYUDJET TASHKILOTLARINING JAMLANMA HISOBOTLARINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI

*Ismoilova Mohira*

*DMNA-5 guruh magistranti,*

*dots. v.b. Xamidova Zarifa, TMI*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar qatori o'laroq, davlat byudjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar, xususan, byudjet tashkilotlari, byudjetdan mablag' oluvchilar hamda davlat maqsadli jamg'armalari byudjet hisobotini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash borasidagi holat to'grisida fikr yuritilgan. Mamlakatimizda ushbu sohaga oid qabul qilingan qonun va qarorlar, qoidalar hamda ularning amaldagi ijrosi, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni yurtimizda joriy etishning ustuvor jihatlari yoritilgan. Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet sohasiga tegishli bir qator o'zgarishlar va yangiliklarning samarasini natijasida byudjet mablag'laridan foydalanishning oqilonaligi, maqsadliligi ortib borayotgani to'g'risida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** davlat byudjeti, byudjet tashkiloti, byudjet mablag'ları oluvchi, byudjet mablag'larini taqsimlovchi organ, davlat maqsadli jamg'armalari, moliyaviy hisobot, yillik jamlanma hisobotlar, balans, hisoblash usuli, kassa usuli.

**Abstract:** In this article, in addition to the changes in the economic sphere that have been carried out in our country in recent years, organizations financed from the state budget, in particular, budget organizations, recipients of funds from the budget, and state trust funds, prepare, review and the state of approval is discussed. The laws and decisions, regulations adopted in this field in our country and their actual implementation, the study of international experiences and the priority aspects of their implementation in our country are highlighted. The article also talks about the increasing rationality and purposefulness of the use of budget funds as a result of the effect of a number of changes and innovations in the field of the budget carried out in our country.

**Key words:** state budget, budget organization, recipient of budget funds, body that distributes budget funds, state trust funds, financial report, annual summary reports, balance sheet, calculation method, cash method.

Byudjet tashkilotlari faoliyatlari davomida belgilangan shakllar bo'yicha tuziladigan aktivlar va majburiylarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli umumlashtirgan holatda hisobotlar tuzadilar. Ushbu hisobtlarning yagona uslubiyoti O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan Byudjet Kodeksi,



byudjet hisobining standartlariga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq holda belgilanadi. Byudjet tizimi byudjetlari ijrosiga doir hisobotlarni shakllantirish qat'iy qonunchilik bilan tartibga solingan. Jumladan, davlat byudjeti ijrosiga doir hisobotlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga doir hisobotlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari harakatiga oid hisobotlar alohida qonuniy hujjatlar bilan tasdiqlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yhatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomा" asosida byudjet tasnifi bo'yicha shakllantiriladi. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobotlari qonunchilik normalari asosida shakllantiriladi. Xalqaro talablarga to'la mos ravishda qabul qilingan, byudjet ijrosining hisobi borasida ham asosiy tayanch qonunchilik bazasi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi va hisobotini tashkil qilish borasida ham asosiy normalarni belgilab beradi. Shuningdek, 2014-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan "Byudjet Kodeksi" ham byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil qilish, xarajatlar smetasi ijrosini olib borish va uni nazorat qilish, byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzib taqdim etish kabilar tartibini belgilab beradi. Bundan tashqari, 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag'" bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-son qarori ham byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish jarayonini tartibga soladi.

Byudjet hisoboti byudjet hisobi ma'lumotlari asosida belgilangan shakllar bo'yicha tuziladigan aktivlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir.<sup>1</sup> Bevosita byudjet tashkilotlarining jamlanma hisobotlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular tashkilotning har bir daromad turini shu daromad yoki tushum hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni olish, umumlashtirish hamda tahlil qilish maqsadida tuziladi. Bugungi kunda amaliyotda 2019-yil 18-yanvarda 3124-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Byudjet Hisobining 3-sonli Hisoboti "Byudjet Hisoboti" asosida byudjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet mablag'lari oluvchilarining byudjet hisobotini tuzish va taqdim qilish tartibi belgilanib kelinmoqda. Jamlanma hisobotlar kelgusi hisobot yilining 1-yanvar holatiga tuzilib, quyidagilardan tarkib topadi:

- Balans 1-son shakl;
- Moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risida hisobot;
- Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-son shakl);
- Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumot;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 161-moddasidan



- Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;
- Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot.

Yillik jamlanma hisobotlar hisoblash va kassa metodlari asosida amalga oshiriladi.<sup>2</sup> Dastlab, hisobotlar agar respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga taalluqli bo'lsa, Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga tashkilot rahbari hamda bosh hisobchi imzolari bilan tasdiqlangan holatda taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar byudjetlarida turadigan tashkilotlar moliyaviy hisobotlarni tegishli vazirlik va idoralarga, hokimliklar boshqarmalariga (bo'limlariga) ular tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etadilar. Tashkilotlar, hokimliklar boshqarmalari hamda boshqa byudjet mablag'larini oluvchilar (byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilar) o'z tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini qabul qiladilar, ko'rib chiqadilar hamda tasdiqlaydilar. So'ngra ushbu davlat byudjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi jamlanma hisobotlar Hisob Palatasining xulosasi bilan birgalikda har yilning 15-mayidan kechiktirmagan holatda Oliy Majlisning Qonunchilik Palatasiga taqdim etiladi. Hisobot Palataning siyosiy partiylar fraktsiyalari, deputatlar va qo'mitalarda muhokama qilish asosida ko'rib chiqiladi, so'ngra Qonunchilik Palatasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar bu borada xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyada xuddi o'zimizdagidek holatga guvoh bo'lamiz. Rossiya Federatsiyasida ham byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar har biri o'zi alohida yillik moliyaviy hisobotlarini tuzadilar. Bunda, hisobotni tuzishga mas'ul shaxs tashkilot bosh buxgalteri bo'lsa, uni ko'rib chiqib tasdiqlovchi esa shu tashkilot rahbari hisoblanadi. Hisobotlar tegishli moliya bo'limlariga taqdim etilib, markazlashgan buxgalteriya orqali jamlanadi. Jamlanma hisobot tarkibiga davlat yoki munitsipial tashkilot balansi, tashkilotning konsolidatsiyalashgan xarajatlari to'g'risidagi hisobot, moliyaviy hisobot yilda tashkilotning schyotlari yopilganligi to'g'risidagi hisobot, tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bajarilganligi to'g'risida hisobot, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, balansga sharxlar kabilar kiradi. Yevropa mamlakati hisoblanmish Buyuk Britaniyada ham byudjet asosan markazlashtirilgan va asosiy daromad turi soliqlar hisoblanadi. Britaniyada byudjet tashkilotlari har yili o'zlariga zarur bo'ladigan pul mablag'larini so'rab, G'aznachilikka murojaat qiladilar, mablag'lar ajratilishi

<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining oylik, choraklik, yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish Qoidalari" dan, 13.10.2008 1865-sonli

Parlament tomonidan tasdiqlanadi. Bundan tashqari esa, tashkilotlar favqulodda holatlar uchun alohida 5 % miqdorida ortiqcha mablag' so'rash huquqiga egalar. Byudjet hisobotini yuritish tartibi ham anglo-sakson modeli(ma'lumotlar asosan, investorlar uchun taqdim qilinadi, davlat aralashuvi kam) ga asoslangan bo'lib, Buyuk Britaniya milliy standartlariga muvofiq belgilanadi. Britaniyada ham jamlanma hisobotlar asosan Balans, moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risida hisobot, xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumot kabilardan tarkib topadi. Faqatgina hisobotlarni taqdim qilish muddatlarida farqni sezishimiz mumkin, chunki Britaniyada 1 moliya yili 6-apreldan keying yilning 5-apreligacha davom etadi.<sup>3</sup>

O'zbekistonda 3-sonli Byudjet hisobi standartida belgilangan tartibga ko'ra yillik moliyaviy hisobot tarkibi yuqorida keltirildi. Hisobotlarning har biri Standartda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllantiriladi. Xususan, Balansni tuzishdan oldin barcha memorial orderlar bilan rasmiylashtirilgan buxgalteriya yozuvlarini dastlabki hujjatlarga muvofiq holda to'g'ri tuzilganligi va Bosh Kitobda to'g'ri aks ettirilganligi, subschyotlar bo'yicha oylik aylanmalar va qoldiqlar to'g'ri hisoblanganligi tekshirib chiqilishi lozim bo'ladi. Moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda esa byudjet tashkilotining hisobot davri bo'yicha hisoblangan daromad (tushum)lar va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan o'zaro hisob-kitoblari yig'indisi aks ettiriladi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobotni tuzishdan oldin byudjet tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilar:

— tasdiqlangan xarajatlar smetalariga belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarning Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi 2169-sonli Yo'riqnomaga muvofiq 294-son shakldagi Kassa va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish daftarida to'g'ri aks ettirilganligi;

— hisobot davri uchun davlat byudjetidan moliyalashtirilgan mablag'larni tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq (kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) amalga oshirilganligini (tegishli memorial orderlar, 294-son shakl daftari va boshqa hisob registrlari asosida);

— hisobot choragida amalga oshirilgan kassa xarajatlarining (shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan to'lov larning) to'g'riliгини (tegishli memorial orderlar, 294-son shakl daftari va boshqa hisob registrlari asosida) tekshirib chiqishlari lozim bo'ladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi ma'lumot esa byudjet tashkilotning hisobot davri oxirida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi axborotni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

<sup>3</sup> "Basic information about accounting and accounting rules in United Kingdom" Charles C. Little 24 May 2020

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasining pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot byudjet tashkilotlari tomonidan hisobot davri mobaynida quyidagi mablag‘lari harakatini aks ettirish uchun tuziladi:

- hisobot choragining so‘nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo‘yicha tejalgan mablag‘lar;
- faoliyat ixtisosligi bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olindan daromadlar;
- byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijara berishdan olingan mablag‘larning bir qismi;
- belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilgan mablag‘lar;
- homiylikdan olingan mablag‘lar.

Hisobotlarni taqdim etish tartibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “UzASBO” dasturiy majmuasiga ulangan byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda tegishli g‘aznachilik bo‘linmalari yoki byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga taqdim etaishlari kerak bo‘ladi. Dasturiy majmua orqali elektron shaklda topshirilgan moliyaviy hisobotlar bir nusxada qog‘ozga chop etilib, hisobot beruvchi tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Imzolangan moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotida belgilangan tartibda saqlanadi. Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati jamlanma moliyaviy hisobotlarni dasturiy majmua orqali vakolatli xodimlari tomonidan elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etadi. Jamlanma moliyaviy hisobotlar byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan rasmiylashtiriladi va saqlanadi. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati jamlanma moliyaviy hisobotlari tashkilot rahbari hamda markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatining bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Imzolangan moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotda belgilangan tartibda saqlanadi. Moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda taqdim qilish imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda, byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga qog‘oz shaklida imzolangan holda bir nusxada taqdim etadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar (jamlanma) moliyaviy hisobotlarni quyidagicha belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozim:<sup>4</sup>

<sup>4</sup> 3124-son bilan ro‘yhatga olingan 3-soni byudjet hisobi standarti 11-ilovasi, 18.01.2019



T/r	Tashkilotlar	Choraklik hisobotlar	Yillik hisobotlar
1.	O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 20-yanvariga qadar
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar)lar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 20-yanvariga qadar
3.	Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatini amalga oshiruvchi byudjet tashkilotlar	Hisobot choragidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 20-yanvariga qadar
4.	Byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar, shu jumladan:		
4.1.	tasarrufida 10 tagacha bo‘lgan tashkilotlar	Hisobot choragidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 20-yanvariga qadar
4.2.	tasarrufida 10 tadan 50 tagacha bo‘lgan tashkilotlar	Hisobot choragidan keyingi oyning 20 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 25-yanvariga qadar
4.3.	tasarrufida 50 ta va undan ortiq bo‘lgan tashkilotlar	Hisobot choragidan keyingi oyning 25 sanasiga qadar	Hisobot yildan keyingi yilning 30-yanvariga qadar

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari asosida choraklik va yillik jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzib, Moliya vazirligi G‘aznachiligiga elektron tarzda taqdim etadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) byudjetlarida turuvchi tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini tegishli vazirlik va idoralarga, hokimiyatlar (bo‘linma) boshqarmalariga ular tomonidan o‘rnatilgan, biroq Standartda belgilangan muddatlardan kechikmasdan taqdim qiladi. Moliyalashtirilishi (xarajatlarining to‘lanishi) yil davomida bir byudjetdan boshqasiga o‘tkazilgan yoki bir vazirlik (idora) tasarrufidan boshqasiga o‘tkazilgan tashkilotlarda o‘tkazish sanasida moliyaviy hisobot (yillik hisobot shakllari hajmida) tuziladi hamda u ilgarigi va hozirgi yuqori turuvchi idoralarga taqdim etiladi. Kelgusida hisobot faqat yangi yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) taqdim etiladi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etish sanasi ular tomonidan haqiqatda taqdim etilgan sana hisoblanadi. Hisobot taqdim etish uchun belgilangan muddat ishlanmaydigan kunga to‘g‘ri kelganda, undan keyin keladigan birinchi ish kunida taqdim etiladi. Agarda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatda





topshirilmasa, tegishli g‘aznachilik bo‘linmalari byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar rahbarlarini yozma ravishda yoki dasturiy majmua orqali elektron tarzda ogohlantirgan holda Davlat byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirishni (to‘lash) cheklashlari, zarur hollarda to‘xtatib qo‘yishlari mumkin. Moliyaviy hisobotlarni elektron tarzda taqdim etuvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar hisobotlarni topshirish muddatidan kamida 5 kun oldin dasturiy majmua orqali ularni taqdim etish muddatlari yaqinlashgani hamda moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etilmagan kundan boshlab to‘lovlarni amalga oshirishga avtomatik cheklar bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantiriladi. Alovida hollarda, tegishli g‘aznachilik bo‘linmalariga moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish imkoniyati cheklanganligi yoki ma’lum bir uzrli sabablar ko‘rsatilgan holda byudjet tashkiloti va byudjet mablag‘larini oluvchi tashkilot rahbarining yozma ravishdagi murojaatiga asosan hisobotlarni topshirish muddati ko‘pi bilan 5 ish kuniga kechiktirilishi mumkin. Moliyaviy hisobotlarga kiritilgan barcha tuzatishlar haqida yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tekshirish va tasdiqlashda mazkur moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan barcha joylarga (manzilgohlarga) majburiy tartibda xabar qilinishi lozim. Byudjet tashkilotlari, byudjet mablag‘lari oluvchilar va byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar o‘z tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini qabul qiladi, ko‘rib chiqadi hamda tasdiqlaydi. Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari o‘tgan yilgi moliya yakunlarini chiqarishda budget mablag‘larini taqsimlovchilarning o‘z tasarrufidagi tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etishlari mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 26.12.2013
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sen qarori 03.09.1999
3. Vazirlar Mahkamasining 2146-sen bilan ro‘yhatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo’llash bo‘yicha Yo’riqnomasi” 11.10.2010
4. “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining oylik, choraklik, yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish Qoidalari” 13.10.2008
5. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Hisobining 3-senli Hisoboti “Byudjet Hisoboti” 18.01.2019
6. “Бухгалтерская отчетность в бюджетных, автономных учреждениях” О.Г. Вандина 2018
7. “Методика бюджетирования в государственных организациях” О.А. Александров 2019
8. “Basic information about accounting and accounting rules in United Kingdom” Charles C. Little 24 May 2020

